

AQShning «Liberation Day» tarif tashabbusi va uning O'zbekiston farovonligiga ta'siri

Savdo siyosati bo'yicha tahlil

2025-yil 9-aprelda AQSh tomonidan «Liberation Day» («Ozodlik kuni») tashabbusi doirasida deyarli barcha savdo hamkorlariga nisbatan keng qamrovli import tariflari joriy etildi. Mazkur choraga javoban Xitoy ham o'zining tarif siyosatini qat'iylashtirdi va natijada AQSh hamda Xitoy o'rtasidagi o'zaro tarif stavkalari qisqa vaqt ichida har ikki yo'nalishda 120 foizdan oshdi. 2026-yil yanvar oyida tuzilgan ikki tomonlama kelishuvlar ayrim tarif cheklovlarini yumshatgan bo'lsa-da, amaldagi tarif stavkalari tarif ziddiyati boshlanishidan avvalgi darajaga nisbatan yuqori bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston quruqlik bilan o'ralgan hamda tashqi savdoga yuqori darajada bog'liq bo'lgan kichik ochiq iqtisodiyot hisoblanadi. Mamlakatning asosiy savdo hamkorlari — Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Turkiya va Koreya Respublikasi — global tarif qarama-qarshiliklaridan bevosita ta'sirlangan davlatlar qatoriga kiradi.

Shu bilan birga, O'zbekiston va AQSh o'rtasidagi to'g'ridan to'g'ri savdo hajmining nisbatan kichikligi sababli, an'anaviy tashqi savdo statistikasi mazkur tarif choralarning mamlakat iqtisodiyotiga ta'sirini cheklangan darajada aks ettirishi mumkin.

Biroq, asosiy savdo hamkorlarida iqtisodiy faollikning pasayishi, import talabining qisqarishi, xalqaro narxlar nisbatining o'zgarishi hamda global savdo oqimlarining qayta taqsimlanishi kabi bilvosita omillar O'zbekiston iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Mazkur bilvosita ta'sirlarni kompleks baholash uchun mamlakatlar va tarmoqlar o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy bog'liqliklarni hisobga oluvchi hisoblanadigan umumiy muvozanat (Computable General Equilibrium — CGE) modelidan foydalanish zarur.

Model va metodologiya

Mazkur tahlil statik, ko'p mamlakatli va ko'p tarmoqli hisoblanadigan umumiy muvozanat modeliga asoslanadi. Modelda mahsulotlar ularning ishlab chiqarilgan mamlakatiga ko'ra o'zaro farqlanadi (Armington yondashuvi). Ushbu turdagi modellar xalqaro savdo siyosatidagi o'zgarishlarning ishlab chiqarish, iste'mol, narxlar, tashqi savdo oqimlari va aholi farovonligiga ta'sirini kompleks baholash imkonini beradi. Shu bois ular Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi hamda AQSh Xalqaro savdo komissiyasi kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan savdo siyosatini tahlil qilish va uning iqtisodiy oqibatlarini baholashda keng qo'llaniladi.


Model ikki bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqich — kalibrlash bosqichi bo'lib, unda model parametrlari Eora26 global «kirim–chiqim» ma'lumotlar bazasi (137 ta mamlakat va 10 ta iqtisodiy tarmoq) asosida 2023-yilda kuzatilgan haqiqiy savdo

oqimlari hamda tarif stavkalarini aniq aks ettiradigan tarzda moslashtiriladi. Ikkinchi bosqichda muqobil ssenariylar baholanadi. Bunda faqat tarif stavkalari o'zgartirilib, model mehnat bozori muvozanatini ta'minlovchi yangi ish haqi darajalarini hisobga olgan holda qayta hisoblab chiqiladi. Natijada tarif siyosatidagi o'zgarishlarning O'zbekiston iqtisodiyotiga, shuningdek, dunyoning boshqa mamlakatlariga bevosita va bilvosita ta'siri kompleks baholanadi.


Tahlilda foydalanilgan tarif ma'lumotlari CEP II'ning MacMap¹ hamda JST va XVJning Tariff Tracker² bazalaridan olindi. Ushbu bazada mavjud bo'lmagan ma'lumotlar JSTning Yagona tarif ma'lumotlar bazasi (IDB)³ asosida uchta vaqt kesimi bo'yicha to'ldirildi. Asosiy holat sifatida 2025-yil 1-yanvardagi tarif stavkalari qabul qilindi. Taqqoslash uchun olingan muqobil holatlar esa 2025-yil 9-aprelda joriy etilgan «Liberation Day» tariflari hamda 2026-yil 1-yanvar holatiga kelishuvlardan keyin amal qilgan tarif stavkalaridir.

Mazkur yondashuvning ustunligi shundaki, u boshqa iqtisodiy omillarni o'zgarimas deb faraz qilgan holda, tarif siyosatidagi o'zgarishlarning iqtisodiy farovonlikka sof ta'sirini baholash imkonini beradi. Biroq, ushbu model YaIMning kelgusidagi o'zgarishlarini prognoz qilishga mo'ljallanmagan bo'lib, investitsiyalar, valyuta kursi, pul-kredit siyosati, iqtisodiy moslashuv dinamikasi hamda boshqa makroiqtisodiy omillarni hisobga olmaydi.

Natija va tahlil



O'rtacha tarif stavkalari (%)



Farovonlikning o'zgarishi (%)

1-diagramma. AQShning tanlangan davlatlarga (va Xitoyning AQShga) tarif stavkalari (%). Manba: WTO-IMF Tariff Tracker; WTO IDB.

2-diagramma. 2025-yil 1-yanvar bazaviy holatiga nisbatan yangi tariflar natijasida farovonlikning o'zgarishi (%).

¹ **CEPII MacMap** — Centre d'Études Prospectives et d'Informations Internationales / Market Access Map

² **WTO-IMF Tariff Tracker** — Jahon Savdo Tashkiloti va Xalqaro Valyuta Jamg'armasining tariflarni kuzatish bazasi

³ **IDB** — Integrated Database (JSTning Yagona tarif ma'lumotlar bazasi)

Xitoy va AQSh oʻrtasida kutilayotgan kelishuv natijasida Xitoy mahsulotlariga nisbatan qoʻllaniladigan vaznli oʻrtacha tarif stavkasi 121,1% dan 34,4% gacha sezilarli darajada pasayadi. Biroq, barcha mamlakatlarga nisbatan tatbiq etilgan universal 10% lik bazaviy tarif hamda poʻlat va alyuminiy kabi ayrim tarmoqlar uchun joriy etilgan qoʻshimcha tariflar saqlanib qolishi natijasida boshqa davlatlar, jumladan Oʻzbekiston (15,3%), Qirgʻiziston (18,3%) va Hindiston (35,5%) uchun oʻrtacha tarif yukining eng yuqori darajaga yetishi kuzatiladi (1-jadval).

1-jadval. Turli sanalardagi oʻrtacha vaznli tarif stavkalari (%)

Savdo yoʻnalishi	1-yanvar, 2025	9-aprel, 2025	1-yanvar, 2026
AQSh → Xitoy	13.6	121.1	34.4
Xitoy → AQSh	18.2	142.6	26.6
AQSh → Oʻzbekiston	0.0	10.3	15.3
AQSh → Qirgʻiziston	0.0	6.8	18.3
AQSh → Rossiya	0.0	0.0	0.0
AQSh → Qozogʻiston	0.0	3.7	6.0
AQSh → Turkiya	3.1	13.4	19.0
AQSh → Janubiy Koreya	0.0	11.1	11.9
AQSh → Yaponiya	1.8	11.9	11.9
AQSh → Yevropa Ittifoqi	2.2	12.5	8.8
AQSh → Hindiston	2.3	11.1	35.5

Manba: WTO–IMF Tariff Tracker (1-yanvar, 2025 sanasi uchun) va WTO IDB (9-aprel, 2025 va 1-yanvar, 2026 sanalari uchun)

Mazkur ssenariy boʻyicha model natijalari deyarli barcha mamlakatlarda iqtisodiy farovonlikning pasayishini koʻrsatadi. Xususan, 2025-yil aprel oyida joriy etilgan tariflar taʼsirida Oʻzbekiston iqtisodiy farovonligining 0,54% ga qisqarishi hisoblab chiqilgan. Oʻzbekiston uchun mazkur yoʻqotishlar asosan bilvosita omillar hisobiga shakllanib, ularning asosiy qismi mamlakatning yirik savdo hamkorlari — Xitoy, Rossiya va Qozogʻiston iqtisodiyotlarida yuzaga kelgan salbiy oʻzgarishlar orqali namoyon boʻladi.

Ushbu bilvosita taʼsir kanalini paxta misoli asosida koʻrsatish mumkin. AQSh tomonidan joriy etilgan tarif stavkalarining taʼsirida Xitoyning AQShga kiyim-kechak eksporti 2025-yilda 12% ga qisqardi. Eksport hajmining kamayishi Xitoy toʻqimachilik sanoatida ishlab chiqarish quvvatlarining qisqarishiga olib keldi va natijada xom ashyoga boʻlgan talab sezilarli darajada kamaydi: Xitoyning paxta importi taxminan 1,1 mln tonnaga tushdi. Ushbu taʼsir mexanizmi paxta bilan cheklanmaydi va Xitoy importining boshqa tovar guruhlariga — mis, gaz, metallar va sanoat xom ashyosiga — nisbatan ham amal qiladi, zira eksport va ishlab chiqarish hajmi qisqargan iqtisodiyotda import talabi keng koʻlamda kamayadi. CGE modeli ushbu uzatilish mexanizmini alohida tarmoq boʻyicha emas, balki barcha tarmoqlar va barcha savdo hamkorlar boʻyicha bir vaqtda miqdoriy baholaydi. Oʻzbekiston uchun hisoblangan 0,54% lik farovonlik yoʻqotishi shu agregat talab qisqarishining yigʻma natijasidir.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda kuzatilayotgan farovonlik yo'qotishlari tarif ziddiyatining bevosita ishtirokchilari bo'lgan Xitoy va Koreya Respublikasiga nisbatan pastroq, biroq Turkiya, Hindiston hamda Yevropa Ittifoqi davlatlariga nisbatan yuqoriroq darajada baholanadi. Model hisob-kitoblariga ko'ra, 2026-yil yanvar oyida erishilgan kelishuvlardan so'ng O'zbekiston iqtisodiyotida qisman tiklanish kuzatiladi va iqtisodiy farovonlikdagi pasayish 0,54% dan 0,29% gacha kamayadi (2-jadval).

2-jadval. Farovonlik o'zgarishi (%)

Davlat	9-aprel, 2025	1-yanvar, 2026
Xitoy	-1.8241	-0.7397
Yevropa Ittifoqi	-0.4688	-0.3954
Hindiston	-0.3681	-0.8986
Yaponiya	-0.6465	-0.6194
Qozog'iston	-0.6758	-0.4064
Qirg'iziston	1.0070	0.5709
Janubiy Koreya	-1.0158	-0.8099
Dunyoning qolgan qismi	0.4979	0.4873
Rossiya	-1.0819	-0.6165
Turkiya	-0.2242	-0.4468
AQSh	-1.4134	-0.1541
O'zbekiston	-0.5438	-0.2918

Manba: Model natijalari. Izoh: Farovonlik o'zgarishi 2025-yil 1-yanvardagi bazaviy ko'rsatkichlarga nisbatan foizda ifodalangan.

Boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlar ham tarif siyosatidagi o'zgarishlarning bilvosita ta'siri keng ko'lamli ekanligini tasdiqlaydi. Model natijalariga ko'ra, 2025-yil aprel oyida joriy etilgan tariflar ta'sirida O'zbekistonda tarmoqlar kesimida narxlar darajasi 2025-yil yanvar holatiga nisbatan o'rtacha 3–4% ga, ish haqi darajasi esa qariyb 4% ga pasayadi.

Shuningdek, tariflarning oshirilishi xalqaro savdo oqimlarining qayta taqsimlanishiga (trade diversion) olib keladi. Har ikkala ssenariy bo'yicha hisob-kitoblar AQShdan import qilinadigan mahsulotlar ulushining taxminan 10–18% ga, MDH mamlakatlari, xususan Rossiya, Qozog'iston va Qirg'izistondan import hajmining esa 2–6% ga qisqarishini ko'rsatadi. Mazkur qisqarish qisman Osiyo mamlakatlaridan amalga oshiriladigan importning ortishi hisobiga qoplanadi. Xususan, Xitoy va Hindistondan import qilinadigan mahsulotlar ulushining taxminan 1,5–5% ga oshishi kuzatiladi.

Asosiy xulosalar

- O'zbekiston eksportining AQSh bozoriga yo'naltirilgan ulushi 0,8% dan kam bo'lishiga qaramay, model natijalariga ko'ra, 2025-yil aprel oyida joriy etilgan tariflar mamlakat iqtisodiy farovonligining 0,54% ga pasayishiga olib keladi. Ushbu salbiy

ta'sir asosan xalqaro savdo aloqalari orqali yuzaga keladigan bilvosita omillar hisobiga shakllanadi.

- O'zbekistonning asosiy savdo hamkorlari bo'lgan Xitoy, Rossiya va Qozog'istonda tariflar oqibatida mos ravishda 1,82%, 1,08% va 0,68% miqdorida iqtisodiy farovonlikning pasayishi hisoblandi. Shu sababli, hamkor davlatlarda O'zbekistondan kelayotgan importga bo'lgan talab kutilganidan pastroq bo'ladi.

- 2026-yil boshida ayrim davlatlar o'rtasida erishilgan kelishuvlarga qaramasdan, ko'plab mamlakatlar uchun amaldagi tarif stavkalari 2025-yil aprel oyidagi darajadan ham yuqori bo'lib qolmoqda. Jumladan, O'zbekiston mahsulotlariga nisbatan AQSh tomonidan qo'llanilayotgan o'rtacha tarif stavkasi 2026-yilda 15,3% ni tashkil etadi. Bu esa global savdo ziddiyatlari to'liq bartaraf etilmaganini hamda yuqori tarif to'siqlari xalqaro savdo tizimida saqlanib qolayotganini ko'rsatadi.

Manbalar

Armington, P. S. (1969). A Theory of Demand for Products Distinguished by Place of Production.

IMF Staff Papers, 16(1), 159–178. Bolhuis, M. A., Chen, J., & Kett, B. (2023). Fragmentation in Global Trade: Accounting for Commodities. *IMF Working Paper*.

Kehoe, T. J., Pau S. Pujolàs, and Jack Rossbach (2017). Quantitative Trade Models: Developments and Challenges. *Annual Review of Economics*, 9(1), 295–325.

USDA Foreign Agricultural Service (2026). Cotton and Products Annual: China. GAIN Report CH2026-0054. Beijing.

USDA Foreign Agricultural Service (2025). Cotton and Products Update: China. GAIN Report CH2025-0228. Beijing.

Azizbek Abdullajonov, amaliyotchi tahlilchi